

USMON AZIM SHE'RIYATIDA USLUB VA MAHORAT

Ziyataliyeva Asalxon Qobiljon qizi
Farg'ona davlat universiteti Filologiya
fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotasiya: o'zbek xalqining ma'naviy dunyosini boyitishga kuchli ta'sir ko'rsatayotgan ijodkor Usmon Azimdir. Shoir she'rlarining mavzular ko'lam, inson ruhiy olamining tasviri, badiiy san'atlardan foydalanish mahorati, uslubining o'ziga xosligi tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: psixologizm uyg'unlik, tabiat, ruhiyat, baxt .

O'zbek adabiyotining bugungi kundagi zabardast va qalami o'tkir ijodkorlardan biri Usmon Azimdir. Uning ijodi turkiy she'riyatning, shuningdek, umumsharq adabiyotining eng ilg'or an'alarini o'zida mujassam etgan yangi va yuqori bosqichidir. Ijod laboratoriyasiga nazar tashlasak, lirik qahramonning ichki histuyg'ulari, g'ussa, psixologizm, tabiat bilan uyg'unlik, muhabbat va baxtning ko'rinishi hamda g'oyaviy mazmun kasb etishiga guvoh bo'lamiz. Usmon Azim ijodining tub mohiyati psixologik va falsafiy majozilik, ijtimoiy-ustunlik qarashlarni yuksak shakliy ifodasi bo'lganligi bilan xarakterlanadi.

Usmon Azim 70-yillar adabiyotimizga o'zining dadil qadamlari, yoniq qalbi bilan kirib kelgan bo'lsa, u o'zi aytganday qalblarda daryo misol to'lib-toshib oqayotir desak mubolag'a bo'lmaydi. Shoir ijodida zamon, hayot, haqiqat va adolat qalbi tug'yon urib turadi. Erk va o'zlik uchun kurash shoir she'rlarining mag'zini tashkil etadi. Usmon Azim she'riyatiga tanqidchilar adabiyotshunoslar va boshqa ijodkorlar tomonidan iliq munosabatlar bildirib kelinmoqda. Jumladan Mirzo Kenjabek shoirning "Uyg'onish azobi" nomli she'riy to'plamiga fikr bildirib : " Usmon Azim, Xurshid, Davron Shavkat Rahmon va boshqa iste'dodlar yurak yalang'ochlab maydonga chiqdilar. Adabiyot dargohida yo'nalgan har bir o'qimishli yosh shoir ushbu iztirobga duch kelishi muqarrardir. Qafasdagi adabiyotning ijodkor kuychilaridan bo'lmish keyingi avlod

chin soʻzni rasm etdi. Xususan, Usmon Azim rost tuygʻular kuychisi toʻgʻri soʻz shoir sifatida tushuniladi.

Shoir va dunyo, shoir va inson, shoir va jamiyat, shoir va Alloh oʻrtasida vositachi sheʼr boʻladi. U sheʼr orqali his qildi, sheʼr orqali fikrlari, yashadi, desam, xato boʻlmaydi.

Usmon Azim ijodidagi oʻziga xoslik tom maʼnoda kechinmalardagi erkinlik oʻzida mujassam etadi. Inson psixologiyasi davr psixologiyasining bir parchasi sifatida namoyon boʻladi. Odamzodning maqsad-intilishlari oʻy-fikrlari, quvonch va tashvishlari yana oʻsha davrga, davrining muammolariga juda ham bogʻliq holda tugʻiladi. Usmon Azim sheʼrlarida ishq va muhabbat dardi mumtoz adabiyotimizga xos soʻz va ohangda emas, balki zamonaviy tarzda jiddiylik uslubida ifodalanganini koʻramiz. Shoir sheʼrlari aql-idrok, muhokama va mulohazalar ishtirokida hissiyot bilan fikr yuritadi.

.... Men esa seni eslaganim, eslagan

Birga kechirmagan umrimizning har bir lahzasi yodimdadir.

Usmon Azim sheʼrlaridagi obraz va topilmalar badiiy tasvirning jism joni va vujudiga aylanadi.

Yaʼni shoir sheʼrlarida tasvir sanʼati kuchli. U nimani tasvirga tushirsa, xuddi rassomdek unga jon, joziba va kuch baxsh etadi. Uning tasvirlari goʻyoki sheʼriy portretga oʻxshaydi. Natijada obrazlar birin-ketin harakatga tushib, tasvir qudratli bir timsolga aylanib, yurak degan tushuncha yaxlit bir kuchga doʻnadi va butun hazrati insonga tatimli bir goʻzallik yaraladi.

Siz yoqqansiz menga hamisha, Faqat buni etmovdim oshkor.

Oʻyladimki, yurak topishar, Bizdan ketgach, sabr-u ixtiyor.

Fikrlar yakunida xulosa qilish mumkinki, bugungi oʻzbek sheʼriyati taraqqiyotiga Usmon Azim munosib hissa qoʻshgan. Shoir birinchidan oʻzining gʻoyat rang-barang janrlaridagi asarlari bilan adabiyotimizning badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

She'riyatda "Baxt" tushunchasini ko'plab ijodkorlar ta'riflagan. Ammo Usmon Azim baxtga o'zgacha bir nigoh bilan qaraydi.

Men baxtni ko'rganman. Ko'rganman aniq O'rdada nogahon kelgan ro'baro'
Qish kuni paltoga olgan o'ranib Besas bir hayratda qotganman Voybo'o'o' ...
Yo'lka chetlarida baland chinorlar

Qator tuzilishgan. Beharakat, jim.

Baxtning paltoga o'ranib kelishi — mavhum tushunchaning konkretlashtirilishi, she'rda "baxtni paltoga o'ranib kelgan" tarzidagi tasvir — mavhum tushunchaga jismoniy shakl berish orqali o'quvchi tasavvurida aniq obraz yaratishdir. Qish manzarasi, sovuq ob-havo va lirik qahramonning hayrat holati bilan uyg'un holda baxtning paltoga o'ralgan odam sifatida ko'rinishi konkretlashtirish va jonlantirish poetikasining yorqin namunasidir. Qish fasli — odatda sovuq, hayotiylik susaygan, ilqlik kamlik qiladigan muhit sifatida qaraladi. Shunday vaziyatda paltoga o'ranib kelgan baxt obrazi lirik qahramon hayotiga kirib kelgan issiq tuyg'u, ilmiy adabiyotlarda "estetik kontrast" deb yuritiladigan poetik hodisani yuzaga chiqaradi. Ya'ni sovuq manzara ichida iliq obraz yanada yorqin ko'zga tashlanadi. Jonlantirish (personifikatsiya)ning o'ziga xosligi she'rda baxt tushunchasi: "kelgan", "ro'baro' bo'lgan", "paltoga o'ranib olgan" kabi tirik mavjudotga xos xatti-harakatlar bilan ifodalangan. Bu esa jonlantirish usulining markaziy poetik vosita sifatida qo'llanilganini ko'rsatadi. Baxtning inson siymosida gavgdalanishi lirik qahramonning hayajonini kuchaytirib, she'rning emotsional-uslubiy bo'yoqlarini yanada boyitadi. Jonlantirishning o'ziga xosligi shundaki, muallif baxtni nafaqat tirik mavjudot sifatida ko'rsatadi, balki uni kutilmaganda uchraydigan mehmonga o'xshatadi. Bu o'quvchiga she'rni obrazli idrok etish, baxtning kutilmagan paytda kelishi kabi hayotiy-falsafiy fikrlarni teranroq his etish imkonini beradi.

Keltirilgan parcha mazmuniga qaraganda, u qat'iy aruz yoki sillabik she'riyat qonunlariga asoslanmagan. Bo'g'inlar sonining notekisligi, jumlalarining ohangga qarab tabiatda tugashi, sintaktik pauzalar va ritmik bo'laklarning erkin joylashuvi

she'ning erkin vazn janriga xos ekanini ko'rsatadi. Shoirning aynan shu vazndan foydalanishi baxtning kutilmagan kelishi, lirik qahramonning hayajonli holatini erkin tuzilma orqali tabiiyroq ifodalashga xizmat qilgan.

Usmon Azim she'riyati o'zbek xalqining milliy madaniyati, ruhiy olami, orzu – istaklari bilan uzviy bog'langan; binobarin, uning ijodi o'zbek adabiyotidagi, Cho'lpon yo Mirtemir she'riyatidek chinakam milliy va noyob hodisa. Shunga ko'ra, Usmon Azim va unga avloddosh shoirlar ijodini yanada chuqur o'rganish hozirgi davr o'zbek adabiyotshunosligining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Бобоев Т. Шеър или таълими. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –344 б
2. АЗИМОВ У. Инсонни тушуниш. –Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. –52 б.
3. ҲамдамовУ. Бадий тафаккур тадрижи. –Т.: Янги аср авлоди , 2002. –198 б
4. АЗИМОВ У. Сайланма. –Т.: Шарқ, 1995. –432 б.
5. Усмон Азим —Бир парча осмон. Т.: Factor Press, 2022